




## **Buxoro viloyatining sanoat ishlab chiqarishi (2020-yil yanvar-fevral)**

Dastlabki ma'lumotlar bo'yicha 2020 - yilning yanvar-fevral oylarida viloyat korxonalarini tomonidan 2744,8 mlrd. so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, o'tgan yilning tegishli (mos, yanvar-fevral oylariga) davriga nisbatan sanoat ishlab chiqarishining fizik hajm indeksi,\* 106,0 % ni tashkil etdi.

Sanoat ishlab chiqarish tarkibida eng katta ulush ishlab chiqaradigan sanoat hissasiga to'g'ri kelib, uning jami sanoat ishlab chiqarishdagi ulushi 94,3 % ni tashkil etdi.

### **Asosiy iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat ishlab chiqarish hajmi,mlrd.so'm, fizik hajm indeksi % da**



\*Sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi ishlab chiqarilgan mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) hajmining taqqoslanadigan davrlardagi o'zgarishini tavsiflovchi nisbiy ko'satkichdir.



## Asosiy iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat ishlab chiqarish

Jami sanoat ishlab chiqarish fizik hajmi o'sishining asosiy omili bo'lib, ishlab chiqaradigan (qayta ishlash) sanoatning - 17,0 % ga hamda elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalashning - 52,2 % ga o'sishi xizmat qildi.


Shuningdek, suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilishda - 24,7 % ga hamda tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash sanoatida - 69,0 % ga pasayish kuzatildi.



## Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash

Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalarini tomonidan 2020-yilning yanvar- fevral oylarida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 36,3 mlrd. so'mni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 1,3 % ini tashkil etdi.

O'tgan yilning shu davriga nisbatan shag'al qazib olish - 1,7 % neft va tabiiy gaz qazib olish bilan bog'liq burg'ilash xizmatlari - 22,7 % ga, texnik oltingugurt qazib olish esa 8,6 % ga pasaygan.





**Tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlashda yirik  
sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdag'i  
sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish**

Sanoat mahsulotlari	2019-yil yanvar- fevral	2020-yil yanvar- fevral	Farqi +/-
<b>Texnik oltingugurt, tonna.</b>	266,0	243,0	-23,0
<b>Shag'al , ming tonna.</b>	8660,0	8511,0	-149,0

<b>Neft va tabiiy gaz qazib olish bilan bog'liq burg'ilash xizmatlari, mln so'm.</b>	39034,6	30179,8	-8854,8
--	---------	---------	---------




**Ishlab chiqaradigan sanoat**

2020-yilning yanvar-fevral oylarida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 2589,0 mlrd. so‘mni yoki jami sanoat mahsulotlarining 94,3 % ini tashkil etdi, o’tgan yilning tegishli (mos yanvar-fevral oylarida) davriga nisbatan sanoat ishlab chiqarishining fizik hajm indeksi 117,0 % ni tashkil etdi.

### Ishlab chiqarishning texnologik tarkibi bo'yicha ishlab chiqaradigan sanoat tarkibi, % da


O'tgan yilning mos davri bilan solishtirganda ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali tarmoqning ulushi 0,0 % ni (2019-yil yanvar oyida - 0,1 %), o'rta-yuqori texnologiyali - 1,2 % (1,5 %), o'rta-quyi texnologiyali – 62,1 % (52,6 %) va quiyi texnologiyalisi - 36,8 % (45,8 %) ni tashkil etdi.



Jami ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida koks va neftni qayta ishlash maxsulotlarini ishlab chiqarish sohasining ulushi - 52,1 (2019-yil yanvar-fevral oylariga nisbatan fizik hajm indeksi - 120,7 %), kimyo mahsulotlari rezina va plastmassa buyumlarini ishlab chiqarishning ulushi - 1,4 % (2019-yil yanvar-fevral oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 126,1 %), oziq-ovqat, ichimliklar va tamaki mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi - 12,7 % (2019-yil yanvar-fevral oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 108,9 %), boshqa nometall mineral maxsulotlarni ishlab chiqarishning ulushi - 4,3 % (2019-yil yanvar-fevral oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 142,8 %) ni tashkil etdi.



### **Ishlab chiqaradigan sanoatda ayrim turdag'i mahsulotlarning o'sish sur'ati**



2020-yilning yanvar-fevral oylari davomida ishlab chiqaradigan sanoatda 190,7 ming litr aroq (2019-yilning yanvar-fevral oyiga nisbatan 9,9 % ga o'sgan), 131,1 ming tonna avtomobil benzini (30,4 % ga), 131,2 ming tonna dizel yoqilg'isi (11,1 % ga), ishlab chiqarilib, yuqori o'sish sur'atlari kuzatildi shuningdek 14,1 ming tonna un mahsuloti (0,2 % ga ) kamaygan.



**Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik sanoat korxonalari tomonidan  
ayrim turdag'i mahsulotlarni ishlab chiqarish**

Sanoat mahsulotlari	2019-yil yanvar-fevral	2020-yil yanvar-fevral	Farqi +/-
Aroq, ming liter.	173,5	190,7	17,2
Avtomobil benzini, ming tonna	100,5	131,1	30,6
Un mahsuloti, ming t.	14,2	14,1	-0,1



**Ishlab chiqaradigan sanoatda, yirik sanoat korxonalari  
tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish**

Sanoat mahsulotlari	2019-yil yanvar-fevral	2020-yil yanvar-fevral	Farqi +/-
Paxta tolasi, ming t.	31,8	19,9	-11,9
O'simlik yog'i tozalangan, ming t.	6,1	4,6	-1,5
Dizel yoqilg'isi, ming t.	118,1	131,2	13,1
Suyiltirilgan propan va butan, ming t.	1,3	2,0	-0,7
Paxta chigit, ming t.	47,8	32,9	-14,9

Ishlab chiqaradigan yirik sanoat korxonalari tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarishda (2019-yilning yanvar-fevral oyiga nisbatan) dizel yoqilg'isi (11,1 %) ga, avtomobil benzini (30,4 %) ga, aroq (109,9 %) ga o'sishini kuzatish mumkin shuningdek o'simlik yog'i (24,5 %) ga, paxta chigiti (31,1 %) ga, pasayish kuzatildi.



### **Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash**

Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 102,0 mlrd. so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 3,7 % ini) tashkil etdi.

2020-yilning yanvar-fevral oylarida, sanoatning mazkur tarmog'ida elektr energiyani ishlab chiqarish, uzatish va taqsimlash, bug' bilan ta'minlash tizimlari va havoni konditsiyalash o'tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi 152,2 % ga o'sganligi kuzatildi, 2019-yilning yanvar-fevral oylariga nisbatan elektrenergiya ishlab chiqarish 2,5 m.k ga oshganligini shuningdek Issiqlik energiyasi 12,0 % ga kamayganligini kuzatish mumkin.



### **Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash sohasida yirik sanoat korxonalari tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish**

Sanoat mahsulotlari	2019-yil yanvar-fevral	2020-yil yanvar-fevral	Farqi +/-
Elektroenergiya, mln.kVt/s	0,7	1,1	0,4
Issiqlik energiyasi, ming gkal.	324,2	285,2	39,0



## Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 17,5 mlrd.so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,7 % ini) tashkil etdi.

O'tgan yilning mos davriga nisbatan suvga ishlov berish va suv quvurlari bo'yicha taqsimlash bo'yicha xizmatlar - 26,3 % ga, oqava suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlar - 25,8 % ga oshganligi kuzatildi.


## Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish sohasida yirik sanoat korxonalarini tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

Sanoat mahsulotlari	2019-yil yanvar-fevral	2020-yil yanvar-fevral	Farqi +/-
Suvga ishlov berish va suv quvurlari bo'yicha taqsimlash bo'yicha xizmatlar mln so'm	7083,3	8949,5	1866,2
Axlat o'ralarini, tozalash va ishlov berish bo'yicha xizmatlar - mln so'm	62,9	61,7	1,2

## Iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish

Tayyor mahsulot turlarini kengaytirish va ishlab chiqarilishini qo'llab-quvvatlash bo'yicha amalga oshirib kelinayotgan chora-tadbirlar natijasida, iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 786,7 mlrd.so'mni tashkil etdi va 2019-yilning mos davriga nisbatan 8,3 % ga oshgan holda, uning jami sanoatdagi ulushi 28,7 % ni tashkil etdi.


2020-yil yanvar-fevral



2019-yilning mos davriga nisbatan solishtirganda 2020-yil yanvar-fevral oylarida iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish tarkibida nooziq-ovqat mahsulotlarining ulushi 63,1 % dan 63,2 % gacha oshganligi qayd etildi.

Shahar va tumanlar kesimida iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining viloyatda jami hajmidagi eng yuqori ulushi Qorovulbozor tumani 196,2 mlrd. (viloyat iste'mol mollari ishlab chiqarish hajmning 24,9%), Buxoro shahar 140,2 mlrd. (17,8 % ), G'ijduvon tumani. 51,0 mlrd. (6,5 %) hissasiga to'g'ri kelmoqda.

Shuningdek, iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining o'sish sur'atida viloyatda o'sish sur'ati (108,3 %) darajasidan yuqori ko'rsatkich Qorako'l tumanida (139,3 %), Qorovulbozor tumanida (129,9 %) qayd etildi.



Oziq-ovqat tovarlari 289,6 mlrd so'mlik mahsulotlar ishlab chiqarilgan bo'lib o'tgan yilning mos davriga nisbatan 101,1 % ga o'sishini kuzatish mumkin hamda nooziq-ovqat tovarlari esa 497,1 mlrd so'm (112,9 % )ni tashkil qildi.

**Shahar va tumanlar kesimi bo'yicha iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o'sish sur'ati  
(2020-yilning yanvar-fevral oylarida)**

	Mld. so'm	Jamiga nisbatan ulushi % da	2019-yil yanvar-fevral oyiga nisbatan % da
<b>Buxoro viloyati</b>	<b>786,7</b>	<b>100,0</b>	<b>108,3</b>
<i>shahar va tumanlar:</i>			
Buxoro shahar	140,2	17,8	100,6
Kogon shahar	51,1	6,5	79,0
Olot tumani	21,4	2,7	102,2
Buxoro tumani	47,7	6,1	103,7
Vobkent tumani	47,8	6,1	103,8
G'ijduvon tumani	51,0	6,5	102,5
Kogon tumani	30,3	3,9	106,2
Qorako'l tumani	63,8	8,1	139,3
Qorovulbozor tumani	196,2	24,9	129,9
Peshko' tumani	25,7	3,3	101,0
Romitan tumani	22,8	2,9	103,8
Jondor tumani	56,9	7,2	102,2
Shofirkon tumani	31,8	4,0	101,4

Hududlar kesimida oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilishining viloyatda jami hajmidagi eng yuqori ulushi Buxoro shahriga to'g'ri kelib 21,2 % ni, Qorako'l 13,8 % ni shuningdek Buxoro tumanida 10,5 % ni, G'ijduvon tumanida 10,3 % ni tashkil etdi.

Shuningdek, oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilishining o'sish sur'atida eng yuqori ko'rsatkich Qorako'l tumanida (164,1 %), Qorovulbozor tumanida (106,7 %) Buxoro tumanida (100,8 %), Jondor tumanida (101,9%) qayd etildi.



**Hududlar bo'yicha oziq-ovqat mahsulotlari  
ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o'sish sur'ati  
(2020-yilning yanvar-fevral oyida)**

	Mlrd. so'm	Jamiga nisbatan ulushi % da	2019-yil yanvar-fevral oyiga nisbatan % da
<b>Buxoro viloyati</b>	<b>289,6</b>	<b>100,0</b>	<b>101,1</b>
<i>shahar va tumanlar:</i>			
Buxoro shahar	61,3	21,2	94,0
Kogon shahar	23,8	8,2	68,7
Olot tumani	7,9	2,7	93,3
Buxoro tumani	30,4	10,5	100,8
Vobkent tumani	15,0	5,2	102,4
G'ijduvon tumani	29,9	10,3	101,4
Kogon tumani	11,0	3,8	102,8
Qorako'l tumani	39,9	13,8	164,1
Qorovulbozor tumani	3,7	1,3	106,7
Peshko' tumani	9,6	3,3	102,6
Romitan tumani	12,3	4,2	102,8
Jondor tumani	26,3	9,1	101,9
Shofirkon tumani	18,4	6,4	102,2

Shahar va tumanlar kesimida nooziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilishining viloyat jami hajmidagi eng yuqori ulushi Qorovulbozor tumaniga to'g'ri kelib, 38,7 % ni, shuningdek, Buxoro shahri 15,0 % ni, G'ijduvon tumani 4,2 % ni, hamda Vobkent tumani 6,6 % ni tashkil etdi.

Shuningdek, nooziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilishining o'sish sur'atida viloyatdagi o'sish sur'ati (112,9 %) darajasidan yuqori ko'rsatkich Qorovulbozor tumanida (130,5 %) qayd etildi.



**Hududlar bo'yicha nooziq-ovqat mahsulotlari  
ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o'sish sur'ati  
(2020-yilning yanvar-fevral oyida)**

	Mird. so'm	Jamiga nisbatan ulushi % da	2019-yil yanvar-fevral oyiga nisbatan %
<b>Buxoro viloyati</b>	<b>497,1</b>	<b>100,0</b>	<b>112,9</b>
<i>shahar va tumanlar:</i>			
Buxoro shahar	78,9	15,9	106,3
Kogon shahar	27,3	5,5	90,9
Olot tumani	13,5	2,7	108,2
Buxoro tumani	17,3	3,5	109,4
Vobkent tumani	32,8	6,6	104,4
G'ijduvon tumani	21,1	4,2	103,9
Kogon tumani	19,3	3,9	108,2
Qorako'l tumani	23,9	4,8	111,4
Qorovulbozor tumani	192,5	38,7	130,5
Peshko' tumani	16,1	3,2	100,1
Romitan tumani	10,5	2,1	105,1
Jondor tumani	30,6	6,2	102,5
Shofirkon tumani	13,4	2,7	100,3



**Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar tomonidan  
sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish**

Hisobot davrida xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar tomonidan 135,4 mlrd. soʻmlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarildi. Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalarning umumiyligi ishlab chiqarishdagi tutgan ulushi 4,9 % ni tashkil etdi. Xorijiy investitsiya ishtirokidagi korxonalarda mahsulot ishlab chiqarish eng koʻp Kogon shaharda 51,4 mlrd soʻmni Kogon tumanida 30,2 mlrd soʻmni tashkil etdi.

	Xorijiy investitsiyalari ishtirokidagi korxonalar mahsulotlarining ishlab chiqarilishi	Jami sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi %
<b>Buxoro viloyati</b>	<b>135,4</b>	<b>4,9</b>
<i>shahar va tumanlar:</i>		
Buxoro shahar	28,5	9,7
Kogon shahar	51,4	36,2
Olot tumani	-	-
Buxoro tumani	6,6	12,8
Vobkent tumani	13,5	24,0
Gʼijduvon tumani	0,1	0,1
Kogon tumani	30,2	43,2
Qorakoʼl tumani	1,2	1,6
Qorovulbozor tumani	-	-
Peshkoʼ tumani	-	-
Romitan tumani	3,7	5,3
Jondor tumani	0,2	0,2
Shofirkon tumani	-	-




**Buxoro viloyati shahar va tumanlar kesimida  
sanoat ishlab chiqarish hajmlari**

	2020-yil yanvar-fevral mlrd. soʻm	Fizik hajm indeksi % da
<b>Buxoro viloyati</b>	<b>2744,8</b>	<b>106,0</b>
<i>shahar va tumanlar:</i>		
Buxoro shahar	295,0	112,6
Kogon shahar	142,1	97,1
Olot tumani	62,6	82,6
Buxoro tumani	51,8	79,9
Vobkent tumani	56,4	125,7
Gʼijduvon tumani	208,9	125,2
Kogon tumani	69,8	122,2
Qorakoʼl tumani	74,7	96,5
Qorovulbozor tumani	1464,7	116,8
Peshkoʼ tumani	79,5	105,5
Romitan tumani	69,0	110,0
Jondor tumani	83,3	83,3
Shofirkon tumani	87,0	108,7




### Buxoro viloyati ishlab chiqarish hajmida hududlar sanoat mahsulotlarining ulushi, fizik hajm indeksi % da

Viloyat sanoat ishlab chiqarish hajmi tarkibida eng ko'p ulushi Qorovulbozor tumani (viloyat sanoat ishlab chiqarish hajmning 53,4 %), Buxoro shahar (10,7 %), G'ijduvon tuman (7,6 %), Kogon shahar (5,2 %) hissasiga to'g'ri kelmoqda.



Shahar va tumanlarning ishlab chiqarish salohiyatini oshirishga qaratilgan chora-tadbirlar, Vobkent tumani (2019-yil yanvar-fevral oylariga nisbatan 125,7%), G'ijduvon tumani (125,2%) Kogon (122,2 %) tumani hamda Qorovulbozor (116,8 %) tumanida sanoat ishlab chiqarish hajmlari fizik hajm indeksining sezilarli darajada oshishiga imkon berdi.





**Aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan sanoat mahsulotlari  
va iste’mol mahsulotlari ishlab chiqarish  
(2020-yil yanvar-fevral oylarida, ming so‘m)**

	Sanoat mahsulotlari	Iste’mol mahsulotlari
<b>Buxoro viloyati</b>	<b>1437,4</b>	<b>412,0</b>


*shahar va tumanlar:*

Buxoro shahar	1056,6	502,0
Kogon shahar	2334,1	838,4
Olot tumani	637,0	217,5
Buxoro tumani	314,8	289,5
Vobkent tumani	408,1	346,2
G’ijduvon tumani	693,4	169,5
Kogon tumani	905,4	393,1
Qorako'l tumani	460,0	392,7
Qorovulbozor tumani	80477,8	10781,9
Peshko' tumani	654,7	211,8
Romitan tumani	493,1	163,3
Jondor tumani	482,5	329,5
Shofirkon tumani	495,9	181,2



**Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishda  
kichik biznesning ulushi  
(2020-yil yanvar-fevral oylarida, % da)**

Kichik korxona va mikrofirma sub'ektlari tomonidan 688,5 mldr. so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib o'z navbatida kichik biznesning jami sanoat ishlab chiqarishdagi ulushi esa 25,1 % ni tashkil etmoqda shuningdek sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmini o'tgan yilning mos davriga nisbatan 121,8 % ga o'sishi ta'minlandi.




Viloyatimiz shahar va tumanlar kesimida sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmida kichik biznes subyektlarining ulushi tahlili shuni ko'rsatdiki, Qorovulbozor tumani (0,5 %), Kogon shahar (24,6 %), Peshko' tumani (32,7%) da sanoat ishlab chiqarish hajmlaridagi kichik biznes subyektlari ulushining kamligini, mazkur hududlarda joylashgan yirik sanoat korxonalarining ishlab chiqarish hajmlari yuqori ekanligi bilan izohlash mumkin.



**Viloyatda faoliyat yuritayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalarini  
(2020-yil 1-mart holatiga ko'ra)**

2020-yil yanvar-fevral oylarida viloyatda 132 ta yangi sanoat korxonalarini tashkil etildi, shulardan 31 tasi (jami yangi tashkil etilgan sanoat korxonalarini hajmidagi ulushi 23,5 %) Buxoro shahrida, 23 tasi (17,4 %) G'ijduvon tumani, 12 tasi (9,1 %) Vobkent tumani tashkil etildi.



No	Shahar va tumanlar	Ro'yxatdan o'tgan	Faoliyat ko'ssatayotgan
1	Buxoro shahar	1168	1122
2	Kogon shahar	170	159
3	Olot tumani	115	104
4	Buxoro tumani	321	291
5	Vobkent tumani	164	155
6	G'ijduvon tumani	498	440
7	Kogon tumani	287	279
8	Qorako'l tumani	169	168
9	Qorovulbozor tumani	106	105
10	Peshko' tumani	157	146
11	Romitan tumani	226	221
12	Jondor tumani	270	266
13	Shofirkon tumani	207	188
<b>Jami:</b>		<b>3858</b>	<b>3644</b>

**Buxoro viloyati statistika boshqarmasi**

**Sanoat statistikasi**

**bo'limi**

**Tel.: (71) 230-83-05**